

MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION TA'LIM TIZIMI VA MUQOBIL TA'LIM SHAKLINING RIVOJLANISHI

Suyunova Nilufar Miyassarovna

Samarqand viloyati Ishtixon tuman 5-DMTT tarbiyachisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kundan-kunga rivojlanib borayotgan maktabgacha ta'lismiga yangi innovatsion ta'lism shakllarining va texnologiyalarining joriy etilishi, rivojlanish strategiyasining ishlab chiqilishi, chekka qishloqdag'i mamlakatimiz aholisi uchun maktabgacha ta'lism tashkilotlarini barpo qilinishi va shart – sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'limga qamrov sonini oshirish, har bir bolani maktabgacha ta'limda mukammal ta'lism va tarbiya olishi uchun ijmoiy ko'maklashish kabi isloatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lism, tarbiya, rivojlanish, innovatsiya, texnologiya, barkamol avlod.

Mamlakatimizda ta'lism tizimi tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lism tizimini rivojlantirishga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" keng ko'lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, hech kimdan kam bo'limgan navqiron avlodning har tomonlama sog'lom, yuksak ma'naviyatli bo'lib kamol topishi yo'lidagi muhim hujjatdir. Unda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lism tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lism dasturlarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish belgilangan.

Dastur doirasida 5-6 yoshli bolalarni maktab ta'limga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarni yaratish va rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlar tashkil etildi. Bunday guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun turli rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Shu asosda har yili 305 mingdan ortiq 5-6 yoshdagi bolani maktab ta'limga tayyorlash imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan 3-6 yoshli bolalarning otaonalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash va ular bilan tushuntirish ishlarni olib borish orqali maktab ta'limga tayyorlashning muqobil tizimi ham joriy

etildi. Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimi uchun muqobil dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilindi. Yangilangan dasturlar bolalarni maktabga yanada sifatli tayyorlashga, ularning intellektual qobiliyati va mantiqiy fikrlash salohiyatini yuksaltirishga, oldingidan farqli ravishda yozish va o'qishni yanada yaxshiroq o'rganishiga xizmat qiladi.

Ta'lim va tarbiyaning muqobil shakli bu — maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimidagi innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish modelidir.

Maktabgacha ta'lim muqobil shakllarini tashkil etishning maqsad va vazifalari.

- Bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish,
- Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalar ilg'or horijiy tajribani xisobga olgan holda davlat talablariga muvofiq xar tomonlama aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy kamol topishi uchun shart sharoitlar yaratish,
- Bolalarni boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash,
- Uzoq hududlarda va qishloq joylarda yashovchi maktabgacha yoshdagi bolalarni teng huquqli sifatli maktabgacha ta'limga ega bo'lishini ta'minlash,
- Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktabgacha ta'lim soxasida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarning moddiy –texnik bazasini mustahkamlash,
- Bola shaxsining asoslarini shakllantirish, unda bilimga qiziqishni rivojlantirish,
- MTT qurilishi imkoniyati bo'lgan uzoq qishloq joylari, tog'li tumanlar va borish qiyin bo'lgan aholi punktlarida kamxarj bo'lgan, bepul sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanshini ta'minlash,
- Maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish.

Maktabgacha ta'limga ehtiyoji mavjud mahallalarda, shu jumladan qishloq joylarida maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini tashkil qilish va ularni zarur moddiytexnika vositalari bilan ta'minlash choralarini ko'rish nazarda tutilgan. Shu o'rinda savol tug'iladi: davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari quvvati bolalar soniga nisbatan kam bo'lganda, yechimni nimada ko'rish mumkin? Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida 2018-2019-o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona viloyati va poytaxtimizning ayrim tumanlarida bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul

bir yillik tayyorlashni joriy etish tajriba loyihasi amalga oshirildi. Loyihani amalga oshirish uchun jami 494 ta guruh tashkil etildi.

Tajriba guruhlari maktabgacha ta'lim muassasalariga bormaydigan bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya olishda yordam berish, buning uchun zarur shartsharoitlar yaratish maqsadida tashkil etildi. Guruhlar davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari, maktabgacha ta'lim sohasida nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslarning negizida ochildi.

— Tajriba guruhlarida 3-4 soat davomida bir yoki ikki smenada ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladi. Bitta guruhdagi bolalar soni 30 nafardan oshmasligi kerak.

— Tajriba guruhlari maktabgacha ta`limiga qo'yiladigan davlat tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalaydi va maktabga tayyorlaydi. Bunda bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, albatta, hisobga olinadi.

Tajriba guruhlariga 5 yoshdan oshgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormayotgan bolalar qabul qilinadi. Boshlang'ich ta`limiga majburiy yillik tayyorgarlikdan o'tgan bolalarga davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Maktabgacha ta`limning ushbu muqobil shakli bog'chaga bormagan bolani birinchi sinfga borganida tengdoshlaridan kam bo'limgan darajada faollashtirishni ko'zlaydigan dastur asosida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlaydi. Demak, bu barcha ota-onalar uchun qulay va davlat tomonidan himoyalangan ta'lim shaklidir. Maktabgacha ta`limning muqobil shakllari taqdimotida MTV tomonidan 16 ta qayta jihozlangan avtobuslar, bolalar maydonchalarini bo`lgan ikkita avtoturargoh va 2 ta modulli MTT taqdim etildi.

Isuzu HC 40 rusumli avtobuslar asosida harakatlanadigan MTTlar belgilangan yo`nalish bo`ylab harakatlanadi. Ko`chma guruhlarda bo`lish muddati 3 soatdan oshmaydi, maksimal soni 3 yoshdan 7 yoshgacha bo`lgan 16 nafar bola bo`ladi. Darslarni barcha tarbiyanuvchilar uchun qiziqarli qilish maqsadida, MTV mutaxassislari turli yoshdagi guruhlar uchun maxsus dastur ishlab chiqdilar, o`qituvchilar esa tegishli tayyorgarlikdan o`tdilar.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-son farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955son qarori

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI 2030YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA
PQ-4312 08.05.2019
4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING "MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA" GI QARORI PQ-3261 09.09.2017
- 5.LEX.UZ